

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА УРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

“МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ” КАФЕДРАСИ

КУРС ИШИ

**Мавзу: Мамлакатимизда мулкни давлат тасарруфидан
чиқариш ва хусусийлаштириш.**

**Бажарди: БМ 62 гуруҳи талабаси
Ш. Шоқобилов**

ТОШКЕНТ-2014

Мундарижа:

Кириш.....	3
II-боб. Мамлакатимизда мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришнинг назарий-ҳуқуқий асослари	
1.1. Ўзбекистон Республикасида мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари ва назарий асослари	24
1.2. Хусусийлаштириш асосида мулкчилик турлари ва мулкчилик муносабатларини ривожлантиришда ҳуқуқий асосларини шакллантирилиши.	
II-боб. Давлат корхоналари мулкни хусусийлаштириш ва баҳолаш жараёнлари таҳлили	
2.1. Хусусийлаштирилаётган давлат корхоналари мулкни баҳолашнинг усуллари.....	35
2.2. Давлат корхоналари мулкни хусусийлаштиришда баҳолаш ёндошувлари таҳлили	
III-боб. Ўзбекистонда хусусийлаштириш иктисодиёти ва уни ривожлантириш масалалари.....	42
Хулоса.....	43
Фойдаланилган адабиётлар руйхати.....	45

КИРИШ

Курс иши мавзусининг долзарблиги: Бозор муносабатлари таракқиётида бизнесни баҳолашга эҳтиёж доимий равишда ортиб бормокда. Ўзбекистон Республикасининг «Баҳолаш фаолияти ҳақида»ги Қонунига биноан хусусий объектлар (қисман ёки тўлиғича Ўзбекистон Республикасига тегишли бўлган объектлар)ни баҳолаш приватизация қилинганда, ишончли бошқарув ёки арендага берилганда, сотилганда, миллийлаштирилганда (хусусий мулкни давлат мулкига айлантирилганда), сотиб олинганда, ипотека йўли билан кредитга олинганда, уставли капитал сифатидаги жамғарма шаклида берилганда мажбурий ҳисобланади.

Маълумки, бозор иктисодиёти турли мулкчиликка асосланади. Мулк масаласининг ҳал этилиши бозор муносабатларини вужудга келтириш борасидаги барча тадбирлар тизимининг негизини ташкил этади. Буни ҳисобга олган ҳолда Республика бозор муносабатларини шакллантириш, энг аввало, ишлаб чиқариш воситаларига бўлган давлат мулкчилигини қайта куриб чиқишдан ва куп укладли иктисодиётни яратишдан бошланади.

Хар бир давлатнинг сиёсий мустакиллиги унинг иктисодий мустакиллиги билан улчанади, яъни мамлакат иктисодий жихатдан мустакил булмаса, у тулалигича мустакилликка эриша олмайди. Мана шунинг учун ҳам Республикада мустакилликнинг дастлабки йиллариданок иктисодий имкониятларни кучайтиришга катта эътибор берилла бошланди. Бу борада мамлакатда тадбиркорликни кенг куламда ривожлантирилиши, мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш жараёни муҳим урин тутади.

Мулкий муносабатлар таракқиётида хусусийлаштириш заруратга айланиб боради. Мулкий монополиядан мулкий эркинликка ўтиш муқаррарлигидан хусусийлаштириш зарурати келиб чиқади.

Хусусийлаштириш жараёнида энг аввало, давлат мулки узининг ҳақиқий эгасини топиши лозим бўлади. Республикада амалга оширилаётган иктисодий ислохатларнинг асосий маъноси ҳам мулкни ҳақиқий эгаларини қўлига топшириш, тадбиркорлик фаолиятини олиб бориш учун уларга кенг

имкониятлар беришдан иборатдир. Шунингдек, хусусийлаштириш куп укладли иктисодиётни ва рағбатлантирувчи рақобатчи турли маҳсулот ишлаб чиқарувчи муҳитни вужудга келтиради.

Курс иши объекти. Ўзбекистон Республикасида хусусийлаштириш жарёнида давлат мулкларини баҳолаш объекти сифатида ўрганилади.

Курс иши субъекти. Ўзбекистон Республикасида мулкнинг давлат тасаруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш

Курс ишини мақсади. Ўзбекистон Республикасида мулкнинг давлат тасаруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тизими ривожланишининг назарий ва амалий асосларини ўрганиш, Давлат мулкни баҳолаш ёндашувларининг такомиллаштириш бўйича илмий ,амалий ва ҳуқуқий таклифларни ишлаб чиқариш.

1.Ўзбекистон Республикасида мулкнинг давлат тасаруфидан

чиқариш ва хусусийлаштириш жараёни.

Ҳар қандай жамиятнинг иқтисодий тизими мулкчиликдан бошланади. Ҳамиша авлодлар меҳнати яратган ва табиат инъом этган бойликлар мулк бўлиб келган. Мулк эгаси бўлиш ёки бўлмасликка қараб, кишиларнинг жамиятдаги мавқеи, аниқроғи уларнинг социал мақоми юзага келади. Мулккий муносабатларга асосланмаган иқтисодиёт бўлиши мумкин эмас. Ишлаб чиқариш ресурслари биронта мулк бўлиб ҳаракатга келади. Яратилган

маҳсулотлар ҳам муайян мулк доирасида ўзлаштирилади.

Мулкчилик муносабатлари — жамиятдаги бойликларки ўзлаштириш хусусидаги иқтисодий муносабатлардир.

Мулкчилик, биринчидан, иноон билан бойлик бўлмига буюм ёки бошқа нарса ўртасидаги муносабат, иккинчи-дан, бойлик хусусида кишилар ўртасида юзага келадиган муносабатдир. Кишилар буюмларни ўзгариш қилжб олгандагина ўзлаштиришлари мумкин, чунки жамиятда ўзгаришни ўзлаштириб бўлмайди. Бойликнинг ўзиники ёки ўзгариши бўлиши кишиларни мулкдор ёки мулксиз қилиб, улар ўртасида маълум алоқаларни юзага келтиради. Мулк соҳиби мустақил ўз мулкига таяниб иш юри-тади, у қарам эмас. Мулксиз, ўзга мулкни ижарага олиб, фаолият юргизиши ёки мулкдорга ёлланиб, ёки ночорликдан унга қарам ҳолдачишлаши, бировнинг қўлига- қараб долиши мумкин. Ҳар бир киши ўз мулки орқасидан кун кўради. Ер эгаси деҳқончилик қилиш ёки ерни ижарага беришдан, пул эгаси уни қарзга бериб процент олишдан, капитал эгаси уни бизнесда ишлатишдан, ниҳоят иш ку-чи эгаси ёлланиб ишлашдан даромад топади.

Мулкчилик ўзлаштириш борасидаги муносабат бўлар экан, у эгалик қилиш, фойдаланиш ва тасарруф этишнинг яхлитлигини тақозо этади. Мана шу уч жиҳат мулкчиликнинг ажралмас унсурларидир.

Эгалик қилиш — мулкдорлик ҳудудининг мулк эгаси қўлида сақланиб туришидир. Эгалик шароитида мулк бўлган бойлик қисман ўзлаштирилади. Мулкка эгалик сақланган ҳолда, уни амалда ишлатиш ўзга қўлида бў-лади. Бунинг оқибатида мулкдан келган наф икки қисмга ажралади: бир қисмини

мулкдор, иккинчиси ини м^аг^лкни амалда ишлатувчи ўзлаштиради. Масалан, бино ижарага берилганда эгалик қилиш мулкдор қўлида қолади ва у мулкдан келган пафнинг фақат бир қисмини ижара ҳақи шаклида ўзлаштиради, Бошқа қисмини эса ижарачи ўз-лаштиради. Хуллас, эгалик қилиш қисман, чекланган ўзлаштиришни билдиради.

Фойдаланиш, ишлатиш — мулк бўлган бойликни иқ-тисодий фаолиятда қўллаб, хўжалик жараёнига киритиб, **ундан натижа** олишдир. Фойдаланиш **юз** берганда бойлик **даромад** топиш ёки шахсий эҳтиёжни қондириш учун ишлатилади. Мулкдор ўз мулкини ўзи ишлатганда эгалик қилиш ва фойдаланиш бир қўлда бўлади: Олинган натижани мулкдор танҳо ўзи, бошқа билан баҳам кўрмаган ҳолда ўзлаштиради. Эгаллик қилиш ва фойдаланиш ажралганда мулк келтирган наф ҳам тақсимланган ҳолда ўзлаштирилади.

Тасарруф этиш — мулк бўлган бойлик тақдирини мустақил ҳал этиш, яъни мулкни сотиб юбориш, ижарага бериш, меросга қолдириш, асраб-авайлаб кўпайтириш ёки уни йўқотиб юборишдан иборат хатти-ҳаракатларни амалга ошира билишдир. Мулкчилик муносабат эга албатта, унинг объекти ва субъекти бўлиши шарт. Мулкчилик хўжалик ва тадбиркорлик фаолиятининг турли шакллари орқали иқтисодий жиҳатдан рўёбга чиқарилади.

Бошқа томондан, мулкчиликнинг ҳуқуқий жиҳати унинг иқтисодий томонига нисбатан фақат бўйсунувчи рол ўйнамайди. Бу шунда кўринадикки, ишлаб чиқариш воситаларига маълум ҳуқуқий эгалик қилмасдан, ҳеч ким ишлаб чиқариш жараёнини амалга оширолмайди, ишлаб чиқариш воситалари ва ишлаб чиқарилган маҳсулотдак фойдалана олмайди. Шу сабабли мулкчиликнинг ҳуқуқий меъёрлари (эгалик қилиш, тасарруф этиш, фойдаланиш ҳуқуқи) иқтисодий муносабатларнинг аниқлаштирилган кўриниши ҳисобланади.

Ҳуқуқий меъёрлар, бир томондан, айнан мулкчилик муносабатларини муҳофаза қилиш зарурати билан боғлиқ ҳолда вужудга кел-са, бошқа томондан у товар ишлаб чиқариш шароитида мулкчилик муносабатларини

ривожлантиришда ғоят муқим рол ўйнайди. Бу рол шунда кўринадик, товар хўжалиги шароитида айрим ижтимоий қатламлар ишлаб чиқариш жараёнида қатнашмасдан, айирбошлаш муносабатларида иштирокэтиб (масалан, савдо воситачилари), мулк-дорга айланиш имконияти пайдо бўлади.

Шундай қилиб, мулкчиликнинг ҳуқуқий меъёрлари, биринчи-дан, ишлаб чиқариш воситалари ва яратилган моддий неъматлар-нинг муайян шахсларга (ҳуқуқий ёки жисмоний) тегишли эканли-гини, иккинчидан, мулк эгаларининг қонун билан кўриқланади-ган ваколатларини ва ниҳоят, учинчидан, мол-мулкни ҳимоя қилиш усуллари белгилаб беради.

Мулкчилик муносабатлари, унинг объектлари ва субъектлари бўлишини шарт қилиб қўяди. **Мулкка айланган барча бойлик турла-ри мулкчилик объектларидир.** Мулк объекти бўлиб, инсон яратган моддий ва маънавий бойликлар, табиий бойликлар, ақлий меҳнат маҳсули, инсоннинг меҳнат қилиш қобилияти — ишчи кучи ва бошқалар ҳисобланади. Мулк объектида асосий бўгин — бу ишлаб чиқариш воситаларига эгалик қилиш ҳисобланади. Ишлаб чиқариш воситаларг кимники бўлса, ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳам унга тегишли булади.

Реал ҳаётда ишлаб чиқариш воситаларининг умумлашиш даражаси турли хил, яъни ишлаб чиқарувчиларнинг ишлаб чиқариш воситалари билан қўшилиши турли даражада ва турли шаклларда амалга оширилади. Шунга мос равишда мулк субъектлари вужудга келади. **Мулк субъекти жамиятда маълум ижтимоий-иқтисодий мавқеига эга бўлган, мулк объектини ўзлаштиришда қатнашувчилар, мулккий муносабатлар иштирокчилари бўлиб, улар жамоа, синф, та-бақа ёки бошқа ижтимоий гуруҳларга бирлашган бўлади.** Айрим ки-шилар, оилалар ва давлат ҳам мулкчилик субъекти бўлиб чиқади.

Davlat mulkini xususiy lashtirish — davlatning o'z ixtiyoridagi i. ch. vositalari, mol-mulk ob'ektlarini, korxonalar, uy-joy, transport vositalari, tabiat resurslari va b. ni davlat tasarrufidan chiqarishi va fuqarolar, jamoalar, shuningdek, davlatga tegishli bo'lmagan yuridik shaxslarga berishi yoki sotilishi; davlat mulki asosida turli (aksiyali, xususiy, oilaviy, qo'shma, aralash, korporativ) mulk

shakllarini vujudga keltirish. D.m.x. davlat mulkini kelgusida shu mulk negizida xo‘jalik faoliyati yurituvchi va uning natijalari bo‘yicha to‘liq mulkiy mas’uliyatni zimmasiga oluvchi iqtisodiy sub’yektlarga turli shartlarda berish yoki sotish orqali amalga oshiriladi va mulk egasini o‘zgartirishni nazarda tutadi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mulkni bepul berish, korxonani imtiyozli shartlarda sotish, aksiyalarni sotish, korxonalarni ijaraga berish, mayda korxonalarni kim-oshdi savdosida sotish va b. usullarda amalga oshiriladi.

Tarixan D.m.x.ning o‘z tabiatiga ko‘ra tamomila farq qiladigan ikki turi shakllandi. Birinchi tur takror i.ch. mexanizmidagi o‘zgarishlar va 20-a.ning 70-y.lari 2-yarmida sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat mulki va davlat tadbirkorligining o‘rni va ahamiyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yuzaga keldi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi xo‘jalikni boshqarish va iqtisodiyotda D.m.x. ko‘rinishlari g‘oyaviy ta’sir, ba’zida esa rivojlangan mamlakatlarning yordam ko‘rsatish shartlari bilan bog‘liqholda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy bosimlar tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarga ham tarqaldi. 80— 90-y.larda 80 dan ortiq rivojlanayotgan mamlakatlarda D.m.x.ning turli dasturlari ishlab chiqildi. Bu mamlakatlarda xususiylashtirish jarayoni bozor raqobati muhiti amal qilgan xususiy sektor va xo‘jalik tizimida amalga oshirildi.

Xususiylashtirishning ikkinchi turi jahon sotsialistik tizimi mamlakatlari (Markaziy va Sharqiy Yevropa, Xitoy, sobiq Ittifoq respublikalari)da 1989 y.dan boshlab amalga oshirila boshladi.

Xo‘jalik yuritishning ma’muriybuyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga asoslangan xo‘jalik yuritish tizimiga o‘tishda xususiylashtirish alohida o‘rin tutadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribasi aynan xususiy mulk iqtisodiy usishni ijtimoiy larzalarga yo‘l qo‘ymay ta’minlashini tasdiqlaydi.

U yoki bu mamlakatdagi xususiylashtirish miqyosi ilgari xususiy sektorni milliylashtirish qay darajada qo‘llanilganiga bog‘liq.

Жахоннинг турли мамлакатларида хусусийлаштиришнинг тахлили унинг 7та асосий усулини алохида ажратиб олиш имконини беради:

1. Давлат корхоналари акцияларининг *очик*, сотувини утказиш. Фонд бозорлари етарли ривожланмаган мамлакатларда акцияларни очик сотиш кийин булиб, кимматга тушиши мумкин. Бу кенг куламли реклама компаниясига заруриятдан келиб чикади, лекин бу сайхаракатлар тамомила узини оклайди.

2. Акцияларни кимошди савдоси йули билан сотиш. Хусусийлаштиришнинг кенг таркалган бу усули кимошди савдоси оркали амалга оширилиши керак.

3. Давлат корхоналарини хусусий инвесторлаш. Бу усул объектни тугридан - тугри сотиб олиш, акциялар пакетини сотиб олиш йули билан амалга оширилади. Бу хусусий инвесторлашни йирик корхоналар учун самарасиз хисоблайдилар чунки давлат акцияларининг назорат пакетини уз кулида саклаб колади, бу эса келгуси мувоффакиятлар олдида маъсулят кучли булган инвестиция тугрисидаги кадрларни кабул килишда уз аксини курсатиши мумкин. Янги инвестициялар, яъни акцияларни очик сотиш, хусусий бадаллар ёрдами билан жалб этилиши мумкин.

4. Корхонанинг мулкини сотиш ва кейинчалик мавжуд карзларни тулаш йули билан давлат корхонасини тугатиш.

5. Давлат корхонасини алохида булинмаларига ажратиш ёки булиш ва кайта куриш йули билан уларни кисмлар буйича сотиш.

6. Корхоналарни рахбарлар ва мехнат жамоаси аъзолари томонидан сотиб олиш.

7. Давлат корхонасининг хусусий шахс томонидан ижарага олинishi ёки давлат ва хусусий корхоналар уртасида корхонани бошқариш тугрисида битим тузиш.

Турли мамлакатларда давлат корхоналарини хусусийлаштиришни режалаштириш ва амалга ошириш жараёни коида тарикасида 3 асосий

боскич:

- мақсадга мавофикликни баҳолаш;
- тайёргарлик тадбирлари;
- амалда руёбга чиқариш.

Биринчи боскичда хусусийлаштириладиган корхоналар танлаб олинади ва хусусийлаштириш усуллари белгиланади. Танлов ишбилармонлик фаолиятининг умумий шарт - шароитларини бозорнинг тегишли бугимлари хусусиятини потенциал инвесторларни манфаатдорлик даражасини, молиявий ресурсларнинг мавжудлигини, корхоналар иш олиб боришни асосий хусусиятларини баҳолаш асосида амалга оширилади. Навбатдаги боскичда хусусийлаштириладиган корхоналарни тайёрлаш амалга оширилади, меъёрий асослар ишлаб чиқилади, дастлабки баҳолаш бажарилади ва айрим муҳим қарорлар қилинади.

Қўпинча корхонада ишловчиларнинг манфаатлари билан боғлиқ турли зиддиятли вазиятларни бартараф этиш зарурияти туғилиши мумкин. Қискартиришлар миқдорини камайтириш, ортиқча ходимлар билан адолатли муносабат, янги иш берувчи корхонада қолдирилган ходимларнинг хизмат муддатини ҳисобга олиши шу манфаатларга тааллуқлидир.

Тайёргарлик боскичида амалга ошириладиган асосий тадбирларнинг сунгиси қиймат баҳосини дастлабки аниқлашдан иборатдир.

Бозорнинг потенциал муносабатининг яна бир жиҳати, конкрет бозор шарт - шароитлари, тадбиркорлик фаолиятининг умумий шароитлари замирида харидорлар қайфиятини ҳисобга олишдан иборатдир. Харидор манфаатдорлигини солиқ имтиёзлари, паст фоиз ставкалари ва шу қабилар белгилаш йули билан рағбатлантириш зарур.

Давлат мулк объектларини сотишни амалда юқорида тавсифи берилган 7 усулнинг исталгани воситасида амалга оширилади.

Milliylashtirish usuli qisman oʻtkazilgan mamlakatlarda (AQSH, Germaniya, Yaponiya) xususiylashtirish koʻrinishlari kam uchraydi. Milliylashtirish jarayoni

uzok, vaqt davom etgan mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Fransiya) esa D.m.x. keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda.

Xususiylashtirishning peshqadami bo‘lgan Buyuk Britaniyada D.m.x.ning aksiyalarni tekin taqsimlash va sotish; xizmat ko‘rsatish uchun pudratlar; davlat uy-joylarini kvartirani ijaraga oluvchilarga sotish; raqobatni rivojlantirish maqsadida davlat monopoliyalaridan voz kechish kabi usullari qo‘llanildi. Jahon tajribasi davlat mulkini va uning vazifalarini to‘liq yoki qisman xususiy sektorga o‘tkazishning 22 usuli borligini ko‘rsatadi. Xususiylashtirish — uzok, muddatli jarayon. U Yaponiyada 10 yil, G‘arbiy Yevropada 10—15 yil davom etadi.

Bozor islohotlariga o‘tishning O‘zbekiston modeliga ko‘ra mamlakat va xalqning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish va xususiylashtirish dasturi ishlab chiqilgan hamda amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shunga ko‘ra O‘zbekistonda, birinchidan, davlat mulki mulkning yangi egasiga faqat sotish nuli bilan berilishi mumkin. Bu mulk ob’yektlarining to‘g‘ri taqsimlanishi va ulardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Ikkinchidan, D.m.x.ning maxsus dasturi ishlab chiqilgan va u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Xususiylashtirish bo‘yicha barcha ishlar izchil, bir tizimda olib boriladi. Mulkka munosabatdagi uzgarishlar jarayoni har yili O‘zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan xususiylashtirishning davlat dasturi va tarmoq, mintaqa dasturlari asosida amalga oshiriladi. Uchinchidan, xususiylashtirish muammolari yirik boshqaruv va i.ch. tuzilmalarini monopoliyadan chiqarish, ularning tarkibidan savdo ob’yektlari va xizmat ko‘rsatish sohalarini ajratib olish, shuningdek, muqobil raqobatchi i.ch. korxonalarini yaratish yo‘li bilan birga hal etiladi.

Давлат тасарруфидан чиқариш — бу давлатнинг иқтисодиётдаги ҳаддан ташқари ролини кискартиришга йуналтирилган давлатнинг мулкка эғалигини кайтадан ташкил қилишдир. Бундан ташқари давлат тасарруфидан чиқариш хужалик бошқаруви функциялари, катта қисмини давлатдан четлаштириш, корхоналарга тегишли ваколатларни бериш, вертикал хужалик

алокаларни горизонталларига алмаштиришни билдиради.

Давлат тасарруфидан чиқариш, бозор иктисодиётида давлат муҳим рол уйнамайди дегани эмас. Давлат корхоналари масштаби кичиратилади, лекин давлат аралаш иктисодиётнинг таркибий элементи бўлиб қолади.

Давлат тасарруфидан чиқариш жараёни давлат эгаллигини сақлаб қолади ва корхоналарнинг давлат секторида қолганларини амал қилишини самарадорлигини оширишга йўналтирилган.

Давлат тасарруфидан чиқариш жараёни деидеологизация билан характерланади, бунда демократик партия тарафдорлари давлат секторини, кенгайтиришни ёқлаб чиқадилар, унинг сиёсий рақиблари эса хусусий секторни.

Давлат тасарруфидан чиқаришнинг асосий йўллари қуйдагилар ҳисобланади:

- 1) бозорни либераллаштириш;
- 2) тижоратлаштириш;
- 3) аралаш корхоналар сферасини ташкил қилиш ва кенгайтиришни рағбатлантириш;
- 4) денационализация.

Бозорни либераллаштириш турли хўжалик субъектлари фойдаланиши учун кенг имкониятлар очишни мўлжаллайди. Бу давлат тулик монополияси мавжуд бўлган бозорлар ва иктисодий секторларда рақобатни шакллантириш йўлидир. Бу ерда гап ушбу маънода бормоқда:

у ёки бу бозорда янги рақобатларни қилувчи турли тақиклар ва урнатилган тусикларни олиб ташлаш;

ишлаб чиқариш ва савдони диверсификациялаш, натижада маҳсулоти турли бозорларга чўқа оладиган қўп профилли фирмалар ва сони усади.

Давлат шунингдек кичик бизнесни (солик имтиёзлари орқали) қўллаб-қувватлайди, хорижий капитални жалб қилишдаги тусикларни олиб ташлайди, иктисодиётни монополиядан чиқариш чўра-тадбирларини қабул қилади. Буларнинг барчаси бозорни анча эркинлаштиради. Бозорни

либерализацияси давлат мулкчилигини узгартирмасдан давлат тасарруфидан чиқаришни англатади.

Давлат корхоналарини тижоратлаштириш, уларни бозор механизми принциплари фаолиятига асосланган тижорат ҳисоб-китобида утишидан иборат. Давлат корхоналарини тижоратлаштириш, уларни ураб турган нобозор

муҳитни олиб ташлашни кузда тутади. Бунда давлат тасарруфидан молиялаштириш, ёки қисқартиради ёки умуман олиб ташлайди, солиққа тортиш имтиёзларини ташлайди, кредит мажбуриятларини ҳисобдан чиқаришга таъсир утқазади, хусусий секторда қабул қилган критерийлар асосидаги ҳужалик фаолияти натижаларини баҳолайди. Ҳужалик оборотларини

тижорат давлатнинг параллел муаммоларини ҳал қилишни ишга олиб келади - давлат бюджети тақчиллигини қисқартириш, давлат корхоналари, инвестициялаш ва давлатни субсидиялашдан озод қилади. Бу уз навбатда мамлакат пул ҳужалигини соғломлаштириш, инфляцияни пасайишига олиб келади.

Давлат тасарруфидан чиқаришни яна бир йули имтиёзли кредитланадиган ва солиққа тортиладиган мулкчилик шаклидаги субъектлар ва давлат иштирокидаги аралаш корхоналарни ташкил қилиш ҳисобланади. Бу ерда гап нафақат хорижий капитал иштирокини корхоналар ташкил қилиш ҳақида бормокда, балки орасида мавжуд бўлган давлат мулкчилигини бошқа шакллари ҳақида ҳам бормокда.

Давлат тасарруфидан чиқаришнинг яна бир йули бу уз навбағида энг бевосита хусусий характерга эса бўлган давлат мулкчилиги денационализациясидир. Шунинг учун давлат корхоналари эғалиги нафақат хусусий қуллағга, бапки банкларга, давлат корхоналари жамоасига, кооперативларга утиши мумкин.

Давлат тасарруфидан чиқаришнинг бу барча йуллари бозор иқтисодиёти механизми ҳужалигини такомиллаштириб, мулкка эғаликни умумлаштириб акс эттиради.

Хусусийлаштириш

Иктисодий назарияси ва амалиётда давлат тасарруфидан чиқаришнинг замонавий жараёни хусусийлаштиришнинг айнан узидир.

Хусусийлаштириш мулкка эгалликни давлат тасарруфидан чиқариш йуналишларидан бири бўлиб, уларни фуқаролар ва юридик шахслар хусусий эгаллигининг берилиши билан яқунланади.

Хусусийлаштириш иккита функцияни бажаради: биринчидан, қайта ташкил ўилишни туб илдизи, иктисодий ислохотларни элементи бўлиши зарур, иккинчидан, тартибга солиш инструментларини узок муддатли характерлилигидир.

O'zbekistonda xususiylashtirish bir necha bosqichda o'tkazilmoqda. Birinchi bosqichda (1992—93) "kichik xususiylashtirish" amalga oshirildi. Bu davrda uy-joy, savdo va umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalari xususiylashtirildi (xususiy, oilaviy, jamoa, aksiyali). Kichik xususiylashtirish natijasida 21800 aksiyadorlik, 633 jamoa, 18184 xususiy, 661 ijara korxonalari va b.dan iborat 53902 turli mulk ob'yektlari vujudga keldi. Shuningdek, tayyorlov va kayta ishlash tarmoqlarida 25 ming ob'yekt yoki ular jami mikdorining 96,7% xususiylashtirildi. 1993 y.dan yengil, oziq-ovqat sanoatlari, transport va qurilish majmualarining o'rta hamda yirik korxonalarini xususiylashtirish boshlandi. Q.x.dagi islohotlar natijasida dastlab 715 davlat xo'jaligi davlat tasarrufidan chiqarildi, ular negizida 325 jamoa, 296 kooperativ, 90 ijara xo'jaliklari vujudga keldi. Mavjud chorvachilik ob'yektlari, ayniqsa past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan fermalar asosida 735 yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. Shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish ishlari olib borildi (680 ming ga dan ko'proq maydon yoki sug'oriladigan yerlarning 15% shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jaliklari ixtiyoriga berilgan). Shunday qilib, respublika iqtisodiyotida nodavlat sektori salmokli o'ringa ega bo'la bordi va 1993 y.da milliy daromadning 35% nodavlat sektori hissasiga to'g'ri keldi. 1994 y. 1 yanvargacha respublikada 1069414 kvartira

xususiylashtirildi. Bu xususiylashtirilishi lozim bo'lgan kvartiralarning 98,98% ni tashkil etadi. Shu bilan "kichik xususiylashtirish" bosqichi tugallandi.

1994—95 y.larda xususiylashtirishning 2-bosqichi amalga oshirildi. Bu davrda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi qonun yo'li bilan cheklashlar qo'yilmagan korxonalar — xalq xo'jaligining bazaviy tarmoqlari bo'lgan mashinasozlik, yoqilg'i-energetik korxonalari, sanoat, qurilish, transport, kommunal uy-joy xo'jaligi, agrosanoat majmuining tayyorlov va qayta ishlash korxonalari va h.k. xususiylashtirildi. Xususan, "O'zbek-neftgaz" korporatsiyasi, energetika vazirligi, "O'zmashsanoat" assotsiatsiyalarining ko'plab ob'yektlari, shuningdek, transport korxonalari (avtobus va taksomotor parklari) davlat tasarrufidan chiqarildi. Bu bosqichda 5 ming korxona, jumladan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida 900 dan ko'proq o'rta va yirik korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatni barpo etishning asosiy sharti: 1) davlat mulkini xususiylashtirish; 2) ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish; 3) ishlab chiqarish korxonalari va mulkdorlar o'rtasida o'zaro raqobatlashish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; 4) mulkdorlar sinfini shakllantirishdan iboratdir. Albatta, bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan bu xususiyatlar mustamlakachilik tuzumiga asoslangan sobiq Sho'ro saltanati uchun begona edi.

O'zbekiston Respublikasi ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish maqsadlarini ko'zlab davlat mulkini xususiylashtirish yo'lini tutdi. Bu yo'l jahon davlatlari tajribasida hayotda o'zini oqlagan yo'ldir. Bu yo'ldan dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Filippin singari davlatlari ham bortnoqdalar.

O'zbekiston Respublikasida xususiylashtirish jarayonini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish maqsadida 1992-yil fevralda Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Davlat qo'mitasi ta'sis qilindi. 1994-yilda u Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasiga aylantirildi.

Mazkur qo`mita zimmasiga bir qator muhim vazifalar yuklatildi. Ular quyidagilardan iborat edi:

- ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda yagona siyosatni amalga oshirish va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning ustuvor yo`nalishlarini belgilash va xususiylashtirish dasturini ishlab chiqish;
- xususiy biznes rivojlanishiga yordam ko`rsatish va boshqalar.

Xususiylashtirish tanlov va kim oshdi savdosi orqali amalga oshirildi, bu tartib takomillashib bordi. Dastlab savdo-sotiqqa faqat mol-mulkning o`zi qo`yilgan bo`lsa, keyinroq xususiylashtirilayotgan mol-mulk joylashgan yer uchastkalar, yangi qurilish qilish uchun yer maydonlari ham kim oshdi savdosiga qo`yildi.

Xususiylashtirishdan tushgan barcha mablag`lar tadbirkorlarni qo`llab-quvvatlash uchun berildi. Bu jarayon ham O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan o`ziga xos yangi tajriba sifatida dunyo mamlakatlarida katta qiziqish uyg`otdi.

Davlat mulkini xususiylashtirish tamoyillari

Davlat mulkini xususiylashtirishning Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar xususiylashtirish jarayonini amalga oshirishning nazariy-ilmiy va amaliy asosi bo`lib xizmat qildi. Chunki, unda O`zbekistonning o`ziga xos shart-sharoitlari, xususiyatlari va talablari har tomonlama hisobga olinganligidan tashqari, jahon mamlakatlarining bu boradagi ilg`or tajribalari ham chetlab o`tilmagan edi. Buni nimalarda ko`rish mumkin?

Birinchidan, xususiylashtirish qandaydir kishilar yoki ma'lum mafkura manfaati uchun bo`ysundiriladi. «Davlat bosh islohotchi» tamoyiliga amal qilindi. Davlat xususiylashtirishni boshqarib bordi.

Ikkinchidan, O`zbekistonda chek vositasi bilan xususiylashtirish g`oyasidan voz kechildi, davlat mol-mulki yangi mulkdorga faqat sotish yo`li bilangina

mulkchilikning boshqa shakliga aylantirila boshlandi. Bunda «tekin narsaning qadri ham bo'lmaydi» degan qoidaga amal qilindi.

Uchinchidan, xususiylashtirishga dasturiy yondashuvni ta'minlash va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo`lidan borildi. Albatta, bu qoida har bir yangi bosqich uchun ustuvor yo`nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Masalan, dastlabki bosqich xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko`rsatish korxonalarini hamda qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini, xullas «kichik xususiylashtirish» jarayonini qamrab oldi.

1992—1993-yillarda 28,8 ming yuridik shaxs 53,9 mingta xususiy obyekt egasi bo`ldi. Shu yillarda 1 million kvartira xususiylashtirildi. Ular xususiy mulkka aylandi. O`zbekiston aholisining asosiy qismi qaysidir shakldagi mulk egasi bo`ldi. Davlat ahamiyatiga ega bo`lgan obyektlardan tashqari, barcha mulkka ftiqaroning o`zi egalik qilmoqda.

2003-yilning birinchi yarmiga kelib mamlakatda 698 korxona va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Ushbu xususiylashtirishdan tushgan jami mablag` 22,5 milliard so`mni tashkil qildi.

Xususiylashtirishning huquqiy negizlari

O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish 1990yildayoq hukumat tavsiyasi asosida mahalliy sanoatda 3 ta xususiy korxona tashkil qilinishi bilan belgilangan edi. Samarqanddagi uy mehnatiga asoslangan xususiy fabrika hissadorlik jamiyatiga aylandi. Sirdaryo shoyi to`qish fabrikasi va boshqa qator korxonalar ijaraga o`tib ishlay boshladi. Bu yerda to`plangan dastlabki tajribalar keyinchalik davlat mulkini xususiylashtirishda hisobga olindi, undan samarali foydalanildi.

1991-yil 18-noyabrda O`zbekiston Oliy Kengashining o`n ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida mulkni «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g`risida»gi Qonun qabul qilindi.

Unga ko`ra xususiylashtirish va mulkchilik shakllarini o`zgartirish maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi qafiy belgilab qo`yildi.

Dasturga asosan dastlabki bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko`rsatish korxonalarini hamda qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini qamrab oldi. Bu «kichik xususiylashtirish» deb nom oldi.

Kichik xususiylashtirish 1994-yildayoq tugallandi. 1992—1994-yillarda 54 mingga yaqin korxona va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Ularning 18,4 mingtasi xususiy mulk bo`lib qoldi. 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi. 1994-yilda mamlakat yalpi ijtimoiy mahsulotining deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo`lmagan sektorida ishlab chiqildi, bu sektorda 4 millionga yaqin kishi ish bilan band bo`ldi.

Bir million kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog`i xususiylashtirildi. Har uch kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari va ijodiy ziyolilar kvartiralarning bepul egalari bo`lishdi.

Mamlakat Oliy Majlisi mulkdorlar sinini shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida 1996-yil 25-aprelda o`zining beshinchi sessiyasida «Aksiyadorlar jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko`rsatish mexanizmi to'g'risida»gi qonunlarni qabul qildi.

Xususiylashtirishning yangi bosqichlari

1994-yil 21-yanvarda qabul qilingan «Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1994-yil 16-martda qabul qilingan. «Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo`nalisblari to'g'risida»gi Prezident Farmonlari xususiylashtirish jarayonirıi yana ham yangi pog`onaga ko`tarish, uni sifat jihatidan yaxshilash imkonini berdi.

Qabul qilingan qarorlarga muvofiq yangi bosqichda korxonalarni ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirish, ushbu jarayonga mamlakat aholisini va chet ellik investorlarni kengroq jalb qilish vazifasi qo'yildi. Qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk bozorini tashkil etish uchun asos yaratildi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kimoshdi savdolari va tanlovlari o'tkaziladigan bo'ldi.

Xususiylashtirish borasidagi barcha ishlar izchil va muntazam olib borildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga doir 20 dan ortiq davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturlarga muvofiq xalq xo'jaligidagi barcha soha tarmoqlarini ommaviy xususiylashtirish uchun imkon yaratildi, bu boradagi cheklashlar olib tashlandi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994-yil 29-martda tasdiqlangan Davlat dasturiga muvofiq shu yilning o'zida 5127 obyekt xususiylashtirildi.

1995-yili xalq xo'jaligida ommaviy xususiylashtirishlar davri bo'ldi. Yirik korxonalar ham davlat ixtiyoridan chiqarila boshlandi. Shu yili mashinasozlik kompleksiga qarashli 89 ta korxona, 81 ta yoqilg'i energetika, 55 ta qurilish industriyasiga qarashli, 114 ta transport, 68 ta uy-joy kommunal xo'jaligi, 229 ta qayta ishlash korxonasi va 291 ta qurilish bilan bog'liq obyektlar xususiylashtirildi. Iqtisodiyotning davlat sektori negizida mingdan ortiq ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari, 6000 xususiy va oilaviy korxonalar vujudga keldi.

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog'ida aholi uchun imtiyozli tizim yaratildi. Masalan, xususiylashtirilayotgan korxona xodimlariga imtiyozli aksiyalar berildi. Shuningdek, davlat xo'jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog'lar va uzumzorlar imtiyozli shartlarda xususiylashtirildi.

1998-yilga kelib xususiylashtirilgan korxonalar tarmog'i keskin ko'payganligi bilan xarakterlanadi. Agar 1993-yilda mamlakatdagi jami korxonalarning 39,4 foizdan ortiqrog'i davlatga tegishli bo'lmagan korxonalar bo'lgan bo'lsa, 1994-yilga kelib bunday korxonalar 57,7 foizga va 1998-yilga kelib esa 88,2 foizga teng bo'ldi.

Davlat mulkini xususiylashtirish yuzasidan mamlakatimizda olib borilgan katta koʻlamdagi amaliy ishlar natijasida mamlakatda koʻp ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi vujudga keldi.

Toʻplangan tajriba katta-katta sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish imkonini berdi. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya-ishlab chiqarish birlashmasi ochiq turdagi davlat-aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Qishloq xoʻjaligi mashinasozligining 15 ta korxonasi yuqori investitsiya salohiyatiga ega boʻlgan xoʻjalik tuzilmasini — «Oʻzqishloqxoʻjalikmashxolding»ni tashkil etdi. Uning tarkibiga Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasi, Toshkent agregat zavodi, «Chirchiqqishmash», «Oʻzbekqishmash» aksionerlik jamiyatlari kabi yirik korxonalar kirdi.

Bir soʻz bilan aytganda, mustaqillik yillarida xususiylashtirish jarayoni Oʻzbekistonda izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirila bordi.

1996 y.dan D.m.x.ning yangi — 3-bosqichi boshlandi. Bu bosqich eng yirik korxonalarni xususiylashtirish, tarmoqlar ichida institutsional oʻzgarishlar, yangicha xoʻjalik yuritish tuzilmalarini yaratish va b. nazarda tutadi (mas, Toshkent aviatsiya i.ch. birlashmasi ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi, tarmoqlarni boshqarishning yangi tizimi — xoldinglar tashkil etilmoqda).

Oʻzbekistonda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish boʻyicha Davlat dasturiga muvofiq tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash va korxonalarni xususiylashtirilgandan keyingi davrda katʻiy ishlashini taʼminlash choratadbirlari ishlab chiqilgan. Davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalarni xususiylashtirishdan keyingi davrda qatʻiy ishlashi uchun maxsus investitsiya fondlari va banklar tashkil etilgan, xususiylashtirishdan kelgan mablagʻlar jamgʻarilib, ular xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirish uchun

sarflanmoqda. Davlatga tegishli aksiyalarga olingan dividendlar asosiy fondlarni yangilash va ularni texnik qayta jihozlashga yo‘naltirilmoqda.

O‘zbekistonda aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalash va tadbirkorlarni qo‘llabquvvatlash, korxonalarni eksportbop va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaradigan qilib texnik jihozlashni ta‘minlaydigan aniq yo‘nalishli xususiyashtirish amalga oshirilmoqda. Shu yo‘l bilan mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini oshirish hamda davlat uchun tayanch bo‘ladigan mulkdorlar sinfini shakllantirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

O‘zbekistonda D.m.x.da Yevropa Ittifoqi komissiyasi, "TASIS", Jahon banki, YUN IDO, Germaniya texnika markazi, AQShning Xalqaro rivojlanish bo‘yicha Agentligi va b.ning maslahat xizmatlaridan foydalaniladi

2.Хусусийлаштирилатган давлат корхоналарини баҳолашнинг бозор иқтисодиётидаги аҳамияти

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришган даврдан бошлаб мамлакатда иқтисодий ислохотларни мустақил равишда Республикамиз Президенти Ислам Каримов таклиф қилган модель замирида амалга ошириш учун ҳуқуқий асос яратилди. Чинакам миллий, маҳаллий ўзига хосликка мутаносиб хусусийлаштириш моделини рўёбга чиқариш имконияти пайдо бўлди. Давлат мустақиллигини қўлга киритиш натижасида Ўзбекистон учун иқтисодий ва ижтимоий тараққиётнинг, маданий ва маънавий тубдан янгиланиш истиқболлари очилди, вазиятдан келиб чиққан ҳолда дастлабки кунларданоқ бир ёқлама ривожлантирилган мажруҳ иқтисодиётдан мерос бўлиб қолган, табиий ва минерал-ҳом ашё захираларидан нотўғри фойдаланиш, ишлаб чиқарувчи кучларни ривожлантириш ва ҳудудлараро жойлаштиришдаги, нарх–наволарни белгилашдаги, аҳолининг истеъмол тартибидаги бузилишлар туфайли вужудга келган ғоят улкан ва кескин муаммоларни, маъмурий буйруқбозлик йўли билан режалаштиришга асосланган иқтисодий муносабатлардан бозор муносабатларига ўтишнинг тартиби ва усуллари яқка ўзи хал қилишга мажбур бўлди. Жаҳон ҳўжалик

алоқалари тизимига кириш, давлатлараро иқтисодий муносабатларни йўлга қўйишнинг энг маъқул йўллари изланди.

Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритгунга қадар ишлаб чиқариш воситаларининг хусусий мулклиги умуман инкор этилар эди. Хусусий мулкчилик капиталистик ишлаб чиқариш усулини социалистик усулдан фарқловчи белгиси эди. Шу сабабли хусусий мулкчилик ҳам юридик жиҳатдан амалга батамом истесно этилар эди. Хусусий мулкчиликнинг шакли ўзгарилган, ишлаб чиқариш воситаси бўлмаган ва даромад келтирмайдиган фуқароларнинг шахсий мулки сифатидаги кўринишгина мавжуд бўлиши мумкин эди. Аҳолининг ўз мулкидан фойдаланиш туфайли оладиган даромадларининг ҳамма турлари қонунга зид ҳисобланган. Мулкчиликнинг хилма-хил шакллари фақат икки турдан давлат мулки ва колхоз-кооператив мулки бутунлай давлат ихтиёрида эди, барча ишлаб чиқариш воситалари давлатнинг танҳо мулки ҳисобланган. Бундай ҳолатлар ишлаб чиқаришда қатнашувчиларнинг ишлаб чиқариш воситаларидан маҳрум бўлишига, асосий воситаларига эгалик ҳиссининг йўқола боришига, иқтисодий манфаатдорлик ва меҳнатидан рағбатланишнинг пасайишига олиб келган. Иқтисодий жиҳатдан эркин бўлган фуқаро, ҳақиқий мулкдоргина ўз мол-мулкини самарали тасарруф этади, ўз бойлигини кўпайтиришдан манфаатдор бўлибгина қолмай, балки бутун давлатни ҳам бойитишга қодир бўлиши мумкин.

Юқорида қайд этилганларни барчаси жамиятни таркибий қайта янгилашда, ижтимоий-иқтисодий тараққиётда жаҳон тажрибаларига, шунингдек, халқнинг турмуш шароитини, анъаналарини, урф-одатларини, турмуш тарзини ҳар томонлама инобатга олишга асосланган ўз йўлимизни излаб топишни талаб қилган. «Айнан шундай йўл ўзбекистонликларнинг муносиб турмуш кечириши учун кафолат бўла олади, миллий анъаналар ва маданиятнинг ривожланишини, маънавий-ахлоқий қадриятларнинг қайта тикланишини таъминлайди. Пировард мақсадимиз ижтимоий йўналтирилган барқарор бозор иқтисодиётига, очиқ ташқи сиёсатга эга бўлган кучли демократик ҳукуқий давлатни ва фуқаролик жамиятини барпо этишдан

иборатдир».¹

Ўзбекистонда бозор иқтисодиёти муносабатларига ўтишнинг асосий шартларининг ҳуқуқий, ташкилий шарт-шароитларини вужудга келтиришни тақазо этади.

Мамлакатда иқтисодий ислохотларни мустақил равишда Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ислон Каримов таклиф қилган «Ўзбек модели» номини олган, бешта қоида асосига қурилган ҳамда амалга оширилаётган ислохотлар айнан шунга асосланган модели бўйича босқичма-босқич хусусийлаштириш ва ислохотларни ҳаётга тадбиқ этиш жараёни бошланган. Бу модел қуйидагича:

1. Хусусийлаштириш амалга оширилаётган ислохотларни ички минтақага бўйсундирилган ва уларнинг ўзагини ташкил этади;

2. Давлат бош ислохотчидир, шунинг учун хусусийлаштириш жараёни бошқарилади;

3. Қонуннинг устиворлиги, мулкчилик шаклларида қатъий назар, ҳеч истесносиз ҳамманинг қонунлар ва меъёрий-ҳужжатларга риоя этиши;

4. Аҳолининг кам таъминланган қатламларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш, аҳоли ўсишини ҳисобга олиш, аста-секин ижтимоий қафолатлар тизимига ўтишни ўз ичига олувчи хусусийлаштиришнинг адресли йўналтирилиши;

5. Хусусийлаштириш чуқур ўйлаб, жаҳон тажрибаси ҳисобга олинган ҳолда, инқилобий сакрашларсиз, яъни эволюцион йўл билан амалга оширилади.

Қабул қилинган моделга асосланиб 1992 йилнинг охирида Ўзбекистон Республикасининг Давлат мулк ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш қўмитаси мамлакатимиз ҳукумати билан биргаликда хусусийлаштиришнинг стратегияси ва тактикасини белгилб чиқди.

Хусусийлаштиришнинг иқтисодий моҳияти мулкка эгалик ҳуқуқий давлатдан янгитдан тикланаётган турли мулкчилик шаклларида корхоналар, муассасалар ва айрим шахсларга эгалик қилиш ҳуқуқини белгиланишини,

¹ И. Каримов Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т.: «Ўзбекистон», 1995, 9 бет.


ҳамда давлат томонидан хусусий секторларга давлатнинг хизмат кўрсатишини чекланиши ёки хусусий ташаббускорликлари учун кенг –кенг имкониятлар берилиши, ижтимоий ҳимоялашни кафолатлашни кучайтириш ва бошқалар, умуман, давлатга тегишли бўлмаган нодавлат секторларнинг меҳнат фаолиятларида қатншувини қисқартириш, илгари давлатга қарашли бўлмаган, хусусий секторларни, тадбиркорлик фаолиятларини ривожлантиришда суний равишда чеклаб келган юридик ва ташкилий тўсиқларнинг қатъий қисқартирилиши ва бошқалар билан изоҳлаш мумкин. Ҳозирги давргача давлатга тегишли бўлмаган нодавлат секторларини барпо этиш кўпроқ давлат мулкани унинг тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш ҳисобига амалга оширилиб келинмоқда. Бу Ўзбекистонга ҳам мансуб бўлган, бозор иқтисодиётининг қарор топиш жараёни эволюцион йўл билан кечган мамлакатлардан тамомила фарқланиб тузадиган социалистик тузумдан кейинги мамлакатларда кўп укладли иқтисодиётни шакллантиришнинг ғоят муҳим хусусиятидир.

«Давлат – Хусусийлаштирувчи - Давлат ташкилотлари» учлигига бирлашувчи секторлар I блокни ташкил этади. Ушбу блок хусусийлаштириш жараёнимухитининг бозор ишлаб чиқариш аспектини ифода этади. «Хусусийлаштирувчи-ХОХБ» жуфтлигини ҳосил қилувчи секторлар II блокка бирлашиб, хусусийлаштириш жараёнимухитининг хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори аспектини ифода этади.

Моделда кўриниб турибдики, хусусийлаштирувчи 2та блок кесишмасида турибди. Бу эса унинг хусусийлаштириш жараёнига умуман иқтисоддаги ўрни муҳим эканлигидан далолат беради. I блокда давлатнинг хусусийлаштириш иқтисодий сиёсати белгилаган мақсад ва вазифаларни амалга оширса, II блок таркибида ўз мақсад ва вазифаларини самарали рўёбга чиқарувчи ХОХБнинг фаол иштирокчисига айланади. ХОХБнинг 1-сегментида 2-сегментдаги бозор конъюктурасига қараб хусусийлаштириш объектлари таклифини белгиловчи иштирокчи сифатида намоён бўлса, иккинчи сегментда давлат корхонасининг уларни ўстириш (яъни давлат корхонасининг хусусийлаштиришдан олдинги фаолияти) дастурини рўёбга

чиқариш ёхуд хусусийлаштирилмайдиган стратегик аҳамиятга эга бўлган давлат корхоналарининг самарали фаолиятини ошириш мақсадида давлат корхоналарининг иштирокини ёқловчи ташаббускор сифатида намоён бўлади.¹

Бу расмда хусусийлаштириш жараёни секторлари модели кўринишида тасвирланган.



Хусусийлаштирувчи иштирокидаги ҳукумат ҳамда иқтисодиёт хусусийлаштириш сектори (ИХС) ўртасидаги алоқаларнинг характерли хусусияти шундаки, бунда ИХС лаёқатсиз субъектларнинг давлат бюджети олдида кредиторлик қарзи туфайли уларнинг мулки конфискация (мусодара) қилинади, сўнг ушбу мол-мулк хусусийлаштирувчи ихтиёрига топширилади.

Хусусийлаштирувчи ва ИХС ўртасидаги алоқа ИХСга топширилган хусусийлаштирилган корхоналарни хусусийлаштиришдан кейинги давр мобайнида қўллаб-қувватлаш ҳамда лаёқатли мулкдорларнинг рақобатбардош синфини шакллантириш чора-тадбирларини кўзда тутди.

¹ Ш.Шоҳаъзамий «Основы приватизации, рынок её объектов и услуг» Ташкент, «Ибн Сино» 2004

Уй хўжалиги (УХ) ва ХОХБнинг бирламчи сегменти, УХ ва ХОХБнинг иккиламчи сегменти ўртасидаги алоқалар УХнинг (асосан потенциал рақобатбардош мулкдорларга айланиш имконияти борлар) белгиланган тартибда хусусийлаштирилаётган объектларни бирламчи ва иккиламчи бозорда харид қилишдаги актив иштирокини кўрсатади.

Шундай қилиб, хусусийлаштириш жараёниунда хусусийлаштирувчининг саводли ва самарали фаолияти шароитида бозор ва умуман иқтисодда муҳим аҳамиятга эга. Шунга кўра у табиий равишда давлатнинг социал иқтисодий сиёсати доирасида самарали, фаол иштирок этиши керак. Унинг роли қуйидаги шаклларда бўлиши зарур.

Хусусийлаштириш жараёнининг муҳим хусусиятларидан яна бири давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш ишлари қонун билан бириктирилиб, тасдиқланган давлат дастури асосида республика ҳамда ҳудудий миқёсда босқичма-босқич амалга оширилмоқда.

Мулкни давлат тасарруфидан чиқариш жараёнида аҳоли қатламлари учун кучли ижтимоий кафолатларни яратиш ва уни таъминлаш каби қоидага риоя этган ҳолда бошқа давлатлардан фарқли тарзда олиб борилиши муҳим хусусиятидир. Бунда хусусий мулк эгаларига, кичик ва ўрта бизнес ва бошқа турлардаги меҳнат қилувчи жамоаларга бир қатор имтиёзлар тизими яратилган, жумладан хусусийлаштириладиган меҳнат жамоалари ходимлари акцияларни акциядор жамиятидан имтиёзли шартлар билан сотиб олишлари, янги мулкдорларга анча эскирган асосий фондлар ва ижтимоий инфраструктура объектларини бепул берилиши, давлат хўжаликлари мол-мулки фермерлар, боғлар ва бошқа объектлар имтиёзли шартлар асосида хусусийлаштирилмоқда. Аксарият савдо ва хизмат кўрсатиш объектлари янги эгаларига ер участкалари билан биргаликда сотилган. Ишлаб чиқарувчиларга солиқ тўлашда турли имтиёзлар яратилмоқда.

Хусусийлаштириш жараёнида давлатнинг нафақат мулкдорлиги, балки, умуман аҳолига тўғридан-тўғри мақсадли имтиёзли ва кафолатлари тизими Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ижтимоий муҳофаза қилиш, жумладан солиққа жалб қилиш ва бошқаларни тартибга солинишини,

аҳолининг кўпчилик қатламини мулкдор сифатида иш билан таъминлаш, уларнинг манфаатини муҳофаза қилиш кафолатларини давлат ўз зиммасига олади.

Давлат мулки тасарруфидан чиқарилиб, хусусийлаштириш жараёни натижасида мол-мулкка эгалик қилиш ҳаётда инсонларнинг фуқаролик жамиятидаги мақомини ўзгарилади, чунки энди у ўз куч ғайрати ёки ёлланма меҳнат бўйича фаолият кўрсатувчилари тадбиркорларга айланиш имкониятларига олиб келади, ўз навбатида улар тўғридан-тўғри акцияларидан дивидент, улуш пайларидан бир қисмини, таъсис маблағларидан хисса ва бошқа турлардаги даромад олишлари мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, бозор иқтисодиётига ўтиш жараёнида давлат мулки тасарруфидан чиқариш Республикамиз халқ хўжалигида ҳақиқий мулк эгалари синфини барпо этилишига олиб келади, натижада хусусий корхоналар, қўшма корхоналар, қишлоқ хўжалигида фермер-деҳқон, ширкат хўжаликлари барпо этилиб иш ўринлари кўпаяди ва уларнинг ўз фаолиятларида қўшимча даромад маблағлари кўпайиши имкониятлари ортади, охир оқибатда эса давлатимиз иқтисодиёти мустаҳкамланишига олиб келади.

Хусусийлаштириш объектларини баҳолаш мақсади ва вазифалари.

Хусусийлаштириш объектлари бозорида махсус товар билан, яъни хусусийлаштириш объекти ва қимматли қоғозлар билан савдо қилинади, уларни бозор нархи пул бирликларида ифодаланади ва уларга бўлган эҳтиёж ва таклиф асосида шаклланади.

Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини бозор муносабатлари тизимидаги мазмуни, уни қуйидагилар учун қулай шароитни таъминлаб бериш билан аниқланади:

- ишлаб чиқаришини ривожлантириш учун эркин молиявий сармоя маблағларни мобилизация қилиш;
- иқтисодни самарасиз сохаларидан ривожланаётган сохаларига капитални оқиб ўтишини таъминлаш;
- давлат бюджетига пул маблағларини жалб этиш;

- Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори махсус индикаторлари бўйича хусусийлаштириш иқтисоди ҳолатини баҳолаш;
- иқтисодни хусусий секторини ўзгаришига оператив таъсир қилиш.

Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори ҳар қандай бошқа бозор каби ўз ичига битим ва операцияларни ўтказишни махсус технологияларни ўзига киритувчи маълум молиявий ишлаб чиқариш жараёнига эга мураккаб ташкилий, иқтисодий, ҳуқуқий тизимни намоён этади.

Хусусийлаштириш Объектлари ва хизматлари бозорини асосий мақсади иқтисодда хусусийлаштирилган капитални эркин ҳаракати ва самарали тақсимланиши ва қайта тақсимланиши учун қулай шароитларни таъминлашдир. Бу мақсадни амалга ошириш учун қуйидаги шароитларни мавжудлиги зарурдир:

- бозор эркин иқтисод қонунларини фаолияти механизмини таъминлаб бериши;

- рақобат бардошликни ривожлантириш ҳисобига хусусийлаштириш объект ва қимматли қўғозларни сифатини юқори кўрсаткичларини (ликвидлик, жозибадорлик, ишончлилиги ва ҳоказо) таъминлаб бериш;

- хусусийлаштириш объектлари ва қимматли қўғозларни эркин савдосини таъминлаб берувчи ривожланган савдо тизимларни мавжудлиги;

- сармоядорлар ҳуқуқини юқори даражадаги ҳимояси ва манфаатларини қўллаб-қувватлашни таъминлаб берувчи бозорни тартибга солишни самарали тизими мавжудлиги;

- бозор ҳақидаги ахборот билан таъминлаб бериш, унга ташқаридан ҳамда ичидан берилаётган ахборотни тўлиқлилиги, ишончлилиги, аниқлилиги ва оперативлилиги билан эришилади. Унга қуйидагилар киради:

- (молиявий ҳолати, мулкни таркиби ва ҳолати, бошқарув органлари тузилмаси, кадрлар билан таъминланганлиги, акциялари, жалб этилаётган маблағларни ишлатиш режаси, таваккаллари ва ҳоказолар ҳақида) ва хусусийлаштириш ҳақида хусусийлаштирувчини ахбороти;

- Бозорни профессионал иштирокчилари томонидан ўз малакаси, мажбурияти ва масъулияти, профессионал хизматларни кўрсатиш шароити ва тартиби;
- Савдо-сотиқ ташкилотчиларини савдо-сотиқ қоидалари, листинг шартлари ва хоказолар ҳақида;
- Тартиб органларини меъёри-ҳуқуқий базадаги ўзгариш, бозорда иштирокчиларни фаолияти устидан назорат тизими ва иш қоидаларига риоя қилиш ҳақида.

Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини фаолият юритиш механизми муҳимдир. Бунга асос механизм хусусийлаштириш иқтисодини самарали фаолият юритишини таъминлаб беради. Сармоядорларни молиявий ресурсларини йиғишга сармоядорларга эса, ўз маблағларини хусусийлаштириш объектлари ёки қимматли қоғозларга сармояларни қўйиш йўли билан кўпайтиришга хусусийлаштирувчига хусусийлаштириш дастурини амалга оширишга, давлатга эса ўз сиёсий иқтисодини амалга оширишга ёрдам беради. Ҳозирги пайтда Ўзбекистондаги Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари Бозори у ёки бу даражада шаклланган бўлиб, бозор муносабатларини ривожланиши ва чуқурланиши билан бир пайтда такомиллашмоқда. Бу муносабатларни тобора ривожланишига қараб, хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори ҳам зарур бўлган классик тузилмавий ва функционал шаклга ҳамда бозор мухити мазмунига эга бўлиб, жадал ривожланади.

Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори бир қатор вазифаларни бажаради. Уларни шартли равишда 2 гуруҳга бўлса бўлади: ҳар бир бозорга хос бўлган умумбозор вазифалар ва Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини бошқа бозорларда фарқлаб турувчи махсус вазифалар. Умумбозор вазифаларга қуйидагиларни киритсак бўлади:

- тижорат вазифасини, яъни мазкур бозорда фаолият юритишдан даромад олиш вазифаси;

- нарх вазифаси, яъни бозор нархларини шаклланиш ва фаолият юритиш жараёнини, уларни бозор каньюктурасига боғлиқ равишда доимий

ўзгаришини таъминлаб беради;

- ахборот вазифаси, яъни бозор савдо объектлари ва унинг иштирокчилари ҳақидаги бозор ахборотини ишлаб чиқаради ва ўз иштирокчиларига етказиб беради;

- тартибга солиш вазифаси, яъни бозор савдо қоидалари ва унда иштирок этиш қоидалари, иштирокчилар ўртасидаги бахсларни ҳал қилиш тартибини шакллантиради ва назорат органлари, бошқарув органлари ва хоказоларни ўрнатади.

Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини махсус вазифаларига қуйидагилар киради:

- тақсимловчи ва қайта тақсимловчи вазифалар, уларни ўз навбатида 3 та гуруҳга бўлиш мумкин:

- бозор фаолияти тармоқ ва соҳалари ўртасида молиявий ресурс ва хусусийлаштириш объектларини тақсимлаш ва қайта тақсимлаш;

- ҳаракатга лаёқатли хусусий мулкдорларни маблағларини авваламбор, аҳоли ичидан ишлаб чиқармайдиган шаклдан ишлаб чиқарадиган (тадбиркорлик) шаклига ўтказиш;

- хусусийлаштириш дастурини амалга ошириш;

- нарх ва молиявий таваккалларни сугурталаш вазифаси ёки хеджирлаштириш, у қимматли қоғозларни пайдо бўлиши туфайли вужудга келган.

Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини ҳал қиладиган вазифаларни асосий ва қўшимча вазифаларга бўлиш мумкин. асосий вазифаларга қуйидагилар киради:

- хусусийлаштириш дастури, иқтисод ва ижтимоий соҳага мулкдорларни вақтинча эркин бўлган мулкларини жалб этиш;

- сармоя ресурсларини иқтисодни истиқболли соҳаларига самарали тақсимлаш ва қайта тақсимлаш;

- давлат қарзига хизмат кўрсатиш;

- ишлаб чиқариш воситаларига мулкчилик ҳуқуқларини қайта тақсимлаш;

- хусусийлаштирувчи хусусийлаштириш давлат дастурини бажаришига хизмат кўрсатиш;

- молиявий глобаллашувга эришиш.

Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини қўшимча вазифаларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- хусусийлаштириш дастури молиявий оқимларини оптимизациялаш;

- бозор иштирокчилари ижобий кўринишни яратиш;

- хусусийлаштириш дастурини иқтисодий манфаатларини таъминлаб бериш;

- бизнесни ривожлантириш ва қўшимча ишчи ўринларни яратиш;

- иқтисодни хусусий секторини ривожланишига кўмаклашиш;

- сиёсий босим молиявий ва иқтисодий босим хусусийлаштириш иқтисодини ривожлантириш инструменти;

- хусусийлашатириш дастурига сармоядорлар қўйган сармоя маблағларини қайтишини таъминлаш, сармоядорларга хусусийлаштириш дастурига қўйилган мбалағларни ўсишини олишга имконият яратиб бериш.

Замонавий хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини мохияти, мазмуни, қонунлари тузилмаси ва хусусиятини тизимли тахлили шуни кўрсатадики, у ҳозирги шароитларда иқтисодда қуйидаги ўзаро баркамол боғланган ролларни бажаради:

- «Барометр», яъни хусусийлаштириш иқтисоди, ҳолати ва хусусийлаштирувчи сифатларини ўлчаш;

- Иқтисоддаги молиявий сармояларни (хусусий мулкдор ва хусусийлаштириш объектларини маблағларини) тақсимлаш ва қайта тақсимлаш (баъзи иқтисодчиларни айтишича, акумляторни эмас) жараёнларини йўналишини «коммутатори». Булар хусусийлаштириш иқтисоди инструментлари билан тартибга солинадиган бозор эҳтиёжи ва хусусийлаштириш объекти ҳамда қимматли қоғозлар бўйича таклиф нисбати таъсири остида автоматик равишда ҳаракатланади.

- Илмий техник прогресс ва сармоя жараёнини рағбатлантирувчи иқтисоддаги рақобат бардош муҳитни ривожланишининг «катализатори».

- Глобал жахон бозорига чиқиш учун Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори иштирокчиларини «интернационализатори».
- Миллий хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори ва жахон молиявий бозорда хусусийлаштириш объекти ва қимматли қоғозлар билан операцияларни технологиясини «стандартизатори».
- Хусусийлаштириш иқтисодида бозор субъектларини сармоя фаоллигини «рабатлантирувчиси», унинг ҳаракати хусусийлаштириш объекти ва қимматли қоғозларини юқори ликвидлиги ва жозибадорлигига эришиш ҳисобига таъминланади.
- Хусусийлаштириш бозор иқтисодида жараёнлар, инструменталарни ва институтларни ҳаракат меъёрларини тартибсиз ўтишини «тартибга солувчиси», бу жараёнлар асосида мамлакатда ташкиллаштирилган иқтисодий-сиёсат ва бозор иштирокчиларини хавфсиз фаолияти амалга оширилади.
- Бозордаги нархларни «стабилизатори», у қимматли қоғозлар ва хусусийлаштириш объектлари бўйича эҳтиёж ва таклифни мувозанатга келтириш ва хусусийлашатириш иқтисодида рақобатни ривожлантириш асосида амалга оширилади.
- Хусусийлаштириш иқтисодини алгоритмлашган фаолият юритишини ташкил қилувчи «процессор».
- Хусусийлаштириш иқтисоди бозор субъектларини «ахборот берувчиси», субъектларни таваккалини ахборот билан таъминлаш ҳисобига камайтиради. Ликвидли хусусийлаштириш объектлари ва қимматли қоғозларни хусусийлаштириш иқтисоди ёрдамида улар бўйича операцияларни амалга ошириш технология ва схемаларини, хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори янги иштирокчилари ва уларни фаолият юритиш механизмини «сентизатори».
- Хусусийлаштириувчи хусусийлаштириш дастури сармоядорлар хусусийлаштириш дастури бўйича воситачиларни ташкиллаштирилган ишлаб чиқариш фаолияти «индустрияси».
- Сармоя иқлими хусусийлаштириш объект ва қимматли қоғозларни

айрибошлаши, хусусийлаштириш иқтисодида бозор иштирокчилари фаолиятини сифати ҳолатини «анализатори (тахлилчиси)».

- Хусусийлаштирувчи хусусийлаштириш дастури ва сармоядорларга муаммоларини ҳал қилиш ва манфаатларини таъминлашда кўмаклашиш «механизми».

- Хусусийлаштириш объекти ва қимматли қоғозлар бўйича спекулятив операцияларда «тотализатор». Хусусийлаштириш объекти ва қимматли қоғозларга нархларни ўсиши ва пасайиши хусусийлаштириш дастурини услуксиз ривожланишга мажбур этади, яъни хусусийлаштириш дастури ўз қимматли қоғозларини ликвидлигини қўллаб-қувватлаш кўринишини ва бозордаги ўрнини сақлаб қолиш мақсадида ўз иқтисодий ўсиш жараёнини мажбурий оширади. Бунда кучсизроқ хусусийлаштириш дастурлари бозордаги ўз ўрнини кучлиларга беради. Шундан қилиб, Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори ўз иштирокчилар портфелини (хусусийлаштирувчилар, сармоядорлар, рўйхатга олинган ПП ва воситачиларни) хусусийлаштириш объектлари ва қимматли қоғозлари бўйича спекулятив эҳтиёж ва таклиф омиллари таъсирида ўзгартиради. Бу жараёнлар хусусийлаштириувчи воситачи ва сармоядорларни спекулятив ўйинлари натижасида пайдо бўлади. Шу орқали хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори воситачилардаги спекулятив азартни қизитив ўз иштирокчиларини барқарорлик, рақобат бардошлик, мустахкамликка имтиҳон қилади ва рақобатбардош муҳитни ривожлантиради.

- Бозор иштирокчилари ишлаб чиқарадиган хусусийлаштириш объекти ва қимматли қоғозлар улар бўйича кўрсатиладиган хизматларни «гипермаркети», унда бу маҳсулотлар билан савдо-сотиқ амалга оширилади.

- «Бозор мухити», унда бозор (эркин иқтисодни қонунлари ва тамойиллари ҳаракати таъминланади, яъни иқтисод молиялаштирилиши, капиталларни трансформацияси ва секьюритизацияси, хусусийлаштириш иқтисоди қонунлари).

- Хусусийлаштириш иқтисодида иштирок этадиган капитални талаб ва

таклифини «мувозанатга солувчи».

Шуни таъкидлашимиз лозимки, замонавий хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини юқорида кўрсатилган роллари юқори ривожланган очик бозор иқтисодига эга бўлган давлатларни хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорида мажмуа сифатида намоён бўлади. Бу аҳоли мулкани ишлаётган фаол капиталга (иқтисодда хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори орқали самарали айрибошланадиган ва расмий даромад келтирадиган) эркин айланишини таъминлаб беради. Бундай давлатларда машхур Перу олим иқтисодчиси Эрнандо де Сото таъкидлашича, қуллаи институтционал шароитлар таъминланган ва самарали ҳаракат қилади. Бунда аҳолини барча активлари тўлиқ аниқланган ва юридик ҳимояланган, хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозори орқали иқтисодда самарали айрибошланадиган ва расмий даромад келтирадиган ишлаётган капиталга айлантирилган, яъни бу мамлакатларда хусусий мулкни ҳуқуқ тизимлари самарали ишлайди ва у активларда уларни моҳиятини тўлиқ аниқлаб уларга ликвидлик берган, мулкчиларга эса масъулият. Шу туфайли бундай мамлакатларнинг хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари Бозорини самарали (шартли равишда идеал, эталон) ҳамда бозор субъеклари, айниқса, сармоядорлар (ички ва ташқи) учун жазибадор деб ҳисоблаш мумкин, чунки бу мамлакатлар бозорлари иқтисодда яхлитликда ва хусусан, хусусийлаштириш иқтисодида юқорида санаб ўтилган ролларни комплексли (тизимли мажмуани) бажарадилар. Ривожланаётган мамлакат ва МДХ да уларда олиб борилаётган уларда у ёки бу даражада олиб борилаётган макроиқтисодий ислохот ва ташқи савдони эркинлаштирувига қарамасдан, миллий хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорлари анча самарасиз. Уларнинг сабаблари уларда ҳали ҳам институтционал шароитлари ва аҳоли мулкани самарали ишлаётган капиталга айлантириш учун механизм яратилмагани. Демак, ўз миқёси бўйича аҳолини улкан бўлган нелегал (иқтисодда ҳисобга олинмаган) ресурслари (мулкки ҳуқуқлари) ҳали ҳам ишлатилмасдан иқтисодда фаолият юритмасдан ётибди. Бу борада

Ўзбекистон истисно эмас. Шунинг учун Эрнандо де Сотога мувофиқ, ривожланаётган мамлакатларда шу шумладан, Ўзбекистонда ҳам макроиқтисодий ислохотларни самарасини ошириш ва ташқи савдони эркинлаштириш, иқтисодда юқорида санаб ўтилган ролларни тизимли бажарадиган самарали Хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини ташкил қилиш учун ўз хусусийлаштириш иқтисодини мувофиқлаштириш асосида хусусий мулкни юқори ташкил қилинган тизимини яратишдан бошқа йўл йўқ. У қуйидагиларни таъминлаб беришга қобилиятли бўлиши лозим:

а) аҳоли мулкани самарали ишлаётган капиталга активларда уларни мохиятини тўлиқ аниқлаш ва уларга ликвидлик бериш, мулкчиларга эса масъулият ва эркинлик бериш асосида самарали ишлаётган капиталга эркин айлантириш учун фаол механизм ва институтционал шартлар билан;

б) мамлакатда қудратли мулкчилар синфини шакллантириш, бунинг натижасида жамият оммавий «қашшоқлик» ҳолатидан чиқиб ктеиши мумкин;

в) бизнес олиб боришни транзакция чиқимларини ахамиятли пасайтириш аҳоли активларини ликвидлиги ва даромадлилигини таъминлаб бериш, демак, натижада унинг фаравонлигини ошириш ва мамлакатда барқарор иқтисодий ўсиш учун шароитларни яратиш;

г) миллий иқтисодни глобал жахон иқтисодга интеграциясини таъминлаш, унинг жараёнида фонд бозори ва қимматли қоғозлар бозори асосий ахамиятга эга.

Масалани бундай қўйилиши, иқтисодни хусусий секторини ҳисобга олинмаган мулкни, (унда аҳолини баъзи бир қисми хохламаса ҳам иштирок этади) ташкиллашган легаллаштирувини шартлаб беради. Бу сўзсиз, йиғилиб қолган муаммоларни комплексли йиғилишига олиб келади. Уларни намоён бўлиши сабаби, афтидан, ривожланаётган мамлакатларда хусусий мулкни аниқ тизимининг йўқлиги. Бу жараёнда аниқса, муҳим ахамиятга аҳолини ҳисобга олинмаган капиталини Республикада юқорида қайд йўналишларини аҳолини ҳисобда йўқ капиталини юқорида таъкидлагандек

хусусий лирик ҳуқуқини ҳақиқий тизими ва самарали хусусийлаштириш объектлари ва хизматлари бозорини республикада ташкил қилиш асосида рақобатбардош хусусийлаштирилган корхоналарга йўналтиришни рағбатлантириш, айниқса, муҳимдир.

3.Ўзбекистонда хусусийлаштириш иқтисодиёти ва унинг узига хос хусусияти

Утган йиллар мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш максаласини ҳал қилишда кескин бурилиш йиллари бўлди. Бунинг учун сон кетидан қувламасдан, ишни хусусийлаштириш дастурига кирган конкрет йирик корхоналардан, биринчи навбатда, алоҳида лойиҳалар бўйича хусусийлаштириладиган, аввало, хорижий инвесторларга тула сотилиши мулжалланган корхоналардан бошланда.

Айтиш керакки, бу борада ҳали ечилмаган талай муаммолар мавжуд. Шундай экан, бу ишга жалб этилагн, молия соҳасини чуқур биладиган хорижлик маслаҳатчилар билан кенг ва фаол иш олиб бориш керак.

Шу жумаладн, бирнеча йиллардан бери сотолмаётган акциялар пакетларини ҳамда инвесторлар эътиборини ҳозиргача узига тортмаётган объектлар бўйича ахволни тарофлича урганиб, тегишли чора - тадбирлар ва таклифларни тез кунларда қриб чиқишимиз керак.

Ана шундай акциялар пакетлари ва бутун бошли объектларни, инвестор уз зиммасига аниқ инвестицион мажбуриятлр олган тақдирда, маълум муддатдан кейин сотиб олиш шарти билан улрнинг бошқарувига бериш тажрибасини янада кенгрок қуллаш лозим.

Бир суз билан айтганда, мулк шаклини узгартириш масалаларига ҳар юмонлама уйлаб ёндашиш даркор.

Мувофик келадиган хусусийлаштириш чизмасини ганлаб олиш мураккаб вазифа ҳисобланади, зеро корхоналар турли шароитларда иш олиб борадилар ва бир қатор омиллар таъсирида бўладилар.Бу омилларни икки гуруҳга бўлиш мумкин:

асосида хусусийлаштиришга рағбат бўлган омиллар аниқ ҳолатлар билан боглик омиллар.

Биринчи гуруҳга давлат сиёсатининг давлат билан иктисодиётнинг узаро муносабатларихусусиятини узгартириш ва такомиллаштиришга қаратилган йуналиш, масалан, сиёсий ҳокимиятни мустаҳкамлаш, бозор қучлари ҳаракати ва рағбатлантириш қорхоналар фаолиятининг қурсатқичларини яхшилаш, ички молиявий бозорларни мустаҳкамлаш ва мулкчилик шакллари кенгайтириш қиради. Бу билан баробар қуриб қикилиши зарур булагн аниқ ҳолатларга ислох қилинаётган давлат қорхонасининг молиявий аҳволи ва иодш қурсатқичлари, шунингдек унинг ташқилий шакли ва иктисодий фаолият доираси, ҳуссий секторнинг инвестиция .ресурслари потенциалли, сармоя бозорининг мавжудлиги ва баъзи ижтимоий шарт - шароитлар қиради.

Хусусийлаштириш дастурини амалга оширишга қиришиб, ҳар қандай ҳукумат энг қаида икки асосий мақсадни: қорхоналар ажратилаётган маблаглар қамайиши ва давлат активдларини сотишдан тушувчи маблаглар ҳисобига бюджетни тулдиришни қуздайди. Қорхоналарнинг ҳужалик фаолияти устидан ҳукуматнинг маъмурий - молиявий назоратининг қусайтирилиши қуч - қайрат ва маблагларни ижтимоий - иктисодий таракқийётнинг устивор йуналишларига қамлаш имқонини беради.

Жаҳоннинг турли мамлақатларида хусусийлаштиришнинг таҳлили унинг еттита асосий усулини алоҳида ажратиб олиш имқонини беради:

Давлат қорхоналари акцияларининг очик сотувини утқазиш. Фонд бозорлари етарли ривожланмаган мамлақатларда акцияларни очик сотиш қийин булиб, қимматга тушиши мумқин. Бу қенг қулламли реклама қомпаниясиа қуруриятдан қелиб қикади. Леқин бу саъй - ҳаракатлар тамомила узини оқайди. Масалан, Ямайкада шундай қомпания давлат банкини сотиш буйиқа қим ошди савдосини муваффақиятли утқазилишига ёрдам берди.

Акцияларни қимошди савдоси йули билан сотиш. Хусусийлаштиришнинг қенг тарқалган бу усули қимошди савдоси орқали амалга оширилиши қерак. Бунда порахурилик ва айрим фуқароларга

устунлик берилишининг олдини олади. Чунончи, Мексикада хусусийлаштиришнинг дастлабки боскичи корхоналар хукмрон партияга яин турган шахсларга анча - мунча арзон нархларда сотилишида айблаш туфайли куплаб бахсларни келтириб чикарган эди.

Давлат корхоналарини хусусий инвестрлаш.

Бу усул ёхуд объектни тугридан - тугри сотиб олиш, ёхуд акциялар пакетини сотиб олиш йудли билан амалга оширилади. Хусусий инвестрлашни йирик корхоналар учун самарасиз деб хисоблайдилар, чунки давлат акцияларининг назорат пакетини уз кулида саклаб қолади, бу эса келгуси муваффакиятлар олдида масъулият кучли булган асноларда инвестиция тугрисида карорларни кабул килишда уз аксини курсатиши мумкин. Янги инвестициялар ёхуд акцияларни очик сотиш, ёхуд хусусий бадаллар ёрдами билан жалб этилиши мумкин.

Корхонанинг мулкени сотиш ва кейинчалик мавжуд карзларни тулаш йули билан давлат корхонасини тугатиш.

Бу услубдан факат ички кайта куришлар йули билан корхонани саклаб қолишга булган жамики умидлар йукка чикканлигида фойдаланилади. Польшада саноат корхоналарини хусусийлаштириш чогида бу усул кенг кулланилагн.

Давлат корхонасини алохида булинмаларга аджратиш ёки булиш ва кайта куриш йули билан уларни кисмлар буйича сотиш.

Иктисодиёт марказлаштирилган купгина мамлакатларда йирик корхоналар турли турдаги купдан куп корхоналарни уз ичига олади. Хар кандай курунишдаги хусусийлаштириш амалга оширилишидан аввал уларни ажратиш ва кичиклаштириш лозим булади. Бунда корхонанинг фойда келтирувчи булинмалари алохида корхоналар тарикасида сотилади. Корхоналарни рахбарлар ва меҳнат жамоаси аъзолари томонидан сотиб олиш.

Бу холда корхонани меҳнат жамоаси томонидан акционерлаш дастури (У8ОР) энг мухим усул хисобланади. У8ОР шундай механизм хисобланадики, у корхона жамоаси булгуси жамгармалар хисобидан

кайтариладиган карзлар олиш имконини беради. Карзлар копланиши билан акциялар уларни сотиб олишда иштирок этган хар бир ходимнинг уз мулкига айланади.

Бундай мулк турини шакллантириш замирида бир томондан, бозор ва фойдага йуналганлик, иккинчи томондан, ходимнинг ижтимоий мухофазаланганлиги ётадики, бу ходим уз корхонаси мулкига эгалик килиши билан узвий богликдир.

Давлат корхонасининг хусусий шахс томонидан ижарага олиниси ёки давлат ва хусусий корхоналар уртасида корхонани бошқариш тугрисида битим тузиш.

Бундай ёндашув олис муддатдаги истикболда кескин чекланади, корхонанинг активлари ва пасивлари амалда давлат мулкилигича қолади. Сотиб олиш кийматини белгилаш усуллари объект ички бозорда сотилиши ёки чет эл инвесторига таклиф этилиши билан боглик холда ишлаб чиқилади.

Ички бозор учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат мулк кумитаси омидан ишлаб чиқилган икки усул тавсия қилиниши мумкин.

Баланс усули.

1. Объект 1992 йил 1 январдаги нархларда ҳисоблаб чиқилади.
2. Ҳосил бўлган баланс киймати қупаювчи коэффициентлар бўйича табақалаштирилиб, қайта ҳисоблаб чиқилади (Вазирлар Маҳкамасининг 1992, 1993, 1994 йиллардаги қарорлари).
3. Ҳосил бўлган йигиндидан асосий фондлар эскиришининг тегишли коэффициентларга қура қайта ҳисоблаб чиқилган киймати олиб ташланади.
4. Объектнинг узил - кесил киймати жамоа маблағлари сарфланиши, асосий воситаларнинг эскириш даражаси, ишлаб чиқариш ихтисоси сақлаб қолиниши, давлат буюртмасининг ҳажми ва шу қабилар ҳисобга олиб белгиланади.

Корхона кийматини белгилаш учун уни ташкил этган объектлар

киймати 1992 йил 1 январдаги баланс буйича нархларда олинади.

Шундан кейин, Вазирлар Махкамаси қарорларига мувофиқ равишда коэффициентларни табақалаштириб қўлланган ҳолда баланс қиймати ҳисоблаб чиқилади. Ҳисоб - китоблар учун қуйидаги формулани қабул қиламиз:

8_1 - бинолар ва иншоотлар қийматини ташкил этувчи йигинди;

8_2 - асбоб-ускуналар, машиналар, узатиш қурилмалари, транспорт

воситалари қийматини ташкил қилувчи йигинди;

8_3 ~ тугалланмаган ишлаб чиқариш қийматини ташкил қилувчи йигинди;

8_4 - бошқа асосий фондлар қийматини ташкил қилувчи йигинди. У ҳолда 1992 йил 1 январдаги нархларда корхона қиймати: $P, -8, +$

$8_2 + 8_3 + 8_4$ (1) ни ташкил этади.

Қайта ҳисоблаш индексларини қўллаб, уларни тегишли равишда:

K_1 - бинолар ва иншоотлар учун,

K_2 - ускуналар ва машиналар учун.

K_3 - тугалланмаган қурилишлар учун,

K_4 - бошқа асосий фондлар учун,

Тарикасида ифодалаб, корхонанинг асосий қийматини чиқаримиз:

$$P_2 = 8_1 * K_1 + 8_2 * K_2 + 8_3 * K_3 + 8_4 * K_4 \quad (2)$$

Кейин ҳар бир қиймат гуруҳи бўйича корхона фойдаси ёки қарзга олинган маблағлар ҳисобига реализация қилинадиган қиймат белгиланади: (3)

Бунда C_1, C_2, C_3, C_4 - такрорий ишлаб чиқаришга сарфланган уз маблағларининг йигиндиси.

Инфраструктурага хизмат қўлатишда фойдаланиладиган муҳандислик тармоқлари (электр, газ, иссиқлик, сув шъминош ва бошқалар) қийматини аниқлаймиз. Шу мақсадда инфраструктура

булинмалари томонидан муҳанҷислик тармоклари қувватидан фойдаланиш коэффициентлари (K_5) белгиланади.

У ҳолда: **(4)**

Бунда, B , - муҳандислик тармоқларининг индексациялаш ҳисобга олинган қийматини ташкил этувчи йиғиндидир.

Нихоят, ижтимоий инфраструктура ва меҳнат муҳофазаси объектларини қийматини аниқлаймиз:

$$F_5 = B + P, \quad (5)$$

B , ва F - объектларнинг индексация ҳисобга олинган ҳолдаги қийматини ташкил этувчи йиғинди.

Айланма маблағлар ва бошқа активлар ҳар бир муайян ҳолат учун табақалаштирилиб ҳисобга олинади. Эи корхонанинг сотиб олиш қиймати P (2) формула ва (3,4,5) формулаларнинг турлича қурилиши билан белгиланади:

$$P = P_2 - P_5) \\ (P_3 \quad (\\ 6)$$

Формулага (6) тегишли кийматларни қуйиб,

$P =$

(7)

Формулани ҳосил қиламиз.

Ҳосил бўлган формуладан (7) корхонанинг сотиб олиш кийматини муайян ҳисоб— китоб қилиш учун фойдаланилади.

Бирок, Ўзбекистон ҳукумати томонидан корхоналарнинг жамоаларига муайян имтиёзлар берилганлиги муносабати билан (6) формула шу имтиёзларни ҳисобга олиб узгартирилиши мумкин.

Аҳолининг ижтимоий муҳофазаланмаган катламлари эҳтиёжи учун товарлар ишлаб чиқариш бўйича мажбуриятлар қабул қилинганлиги учун сотиб олинаётган мулк қиматидан 20 фоизгача чегирма қилинади, яъни бу миқдорни P_6 тарикасида ифодалаб:

$P_6 = 0,2P$ га эга бўламиз.

Асосий фондлар асосий турларининг жисмоний эскириши 70 фоиз ва ундан кўпроқни ташкил этган бўлса, улар жамоага бепул берилади. Уларнинг кийматини индексикацияни ҳисобга олган ҳолда P_7 тарикасида ифода қиламиз.

Бир йўла туланган ҳолатда 10 фоизгача чегирма берилади. Бу миқдорни P_8 тарикасида ифодалаб:

$P_x = 0,1P$ га эга бўламиз.

Шундай қилиб, корхонанинг барча узил - кесил киймати P_0 барча имтиёзлар ҳисобга олинган ҳолда:

$$P_0 - P_2 / (P_3 + P_4 + P_5) + 0,2P + 0,1P \quad (8)$$

ни ташкил этади.

Бундай ҳисоб - китоб, қоида тарикасида, нисбатда қўйиб олади.

Руйхатга олиш ва хисоб - китобларни амалга ошириш учун куп ходимларни талаб килади, баҳолаш чоғида купдан - куп келишмовчиликларни келтириб чикаради. Купинча ноҳолис ёндашувга сабаб булади.

Олинаётган фойда буйича корхона кийматини белгилаш.

Фойда сотиб олинаётган объект кийматини баҳолаш чоғида хисоб - китобнинг асосий курсаткичи булиши керак. Бу усулнинг мантики нундадир. Худди мана шу курсаткич бозор иктисодиётига энг муутаносиб келади.

Сартароҳонами ёки заводми, у марказда ёки бир четда жойлашганлигидан катъий назар, унинг фаолият натижаси фойда хисобланади. Майли объектнинг асосий фондлари муъжазгина була колсин, лекин шунга карамасдан, катта фойда олинаётган булса, у вақтда унинг баҳолаш киймати ортади. Ва аксинча, ижтимоий аҳамиятга молик товарлар ва маҳсулотларни юкори таннархда, ортикча меҳнат сарфлаб чиқариб, аммо арзимас фойда олаётган корхоналар ҳам бор.

Бундай объектни асосий фондлар киймати буйича баҳолаш принцип жихатддан нотугри булур эди. Зеро, корхона тасарруфида колаётган фойда уни сотиб олиш учун ишлатиладиган маблағнинг асосий манбаидир. Хамда, бинобарин, фойда кам булса, у холда жамоада хусусийлаштириш учун рағбат колмайди.

Албатта, хусусийлаштирилган корхона иш услубини узгартириши ва катта фойдага эришиши керак деб айтиш мумкин.

Бирок бу кушимча харажатларни ҳам такозо этиб, объект кийматини ошириш учун асос була олмайди.

Объектнинг баҳоси канча турса шунча тулаш керак деган тафаккур йусинини четга суриб, мазкур корхонада кутилаётган фойдани олиш принципини белгиловчи сифатида эътироф этамиз.

Куйидаги механизм таклиф килинади. Барча соликлар чегириб ташланадиган кейинги 3 йил мобайнида корхона тасарруфида коладиган

йиллик уртача фойда хисоблаб чикилади:

$$\frac{П1+П2+П3}{3}$$

Пср = -----

хусусийлаштириб олинаётган объектлар янги мулкдорларга кечи билан икки йилдан даромад келтира бошлаши лозимлигини эътиборга олиб, баҳолаш кийматини (Соц) йиллик уртача фойдани (Пср) 2 га купайтириш йули билан аниқлаймиз:

$$Соц = Пср * 2 = 2Пср$$

Фойдани миқдори бўйича саноат корхоналарини 3 гуруҳга бўлиш мумкин:

йилига 0,5 млн. сумгача фойда оловчи кичик корхоналар;

йилига 2 млн. сумгача фойда оловчи урта корхоналар;

йиллик фойдаси 2 млн. сумдан ортиқ бўлган йирик корхоналар.

Бу корхоналарда ишловчилар келиб чиқиб, акцияларни сотиш хисобига илк бадал объектни хисоблаш кийматининг учдан бир қисмидан ярмигача бўлган миқдорини ташкил этиши мумкин. Унда объектни сотиб олаётган жамоа қупи билан ярим йилда давлат билан хисоб - китоб қила олади.

Хусусийлаштиришга бундай ёндашув амалда корхона мулкдорларига айланиш истагига қудратли туртки беради.

Объектларнинг баҳосини белгилашнинг бу усули яна икки катта афалликка эга:

Биринчидан, хисоб - китоб ишлари хажми ва бу ишнинг бажариши керак бўлган одамларкескин камаяди.

Иккинчидан, фойдани хисоблашдаги аниқлик қафолатланади, чунки бу жараён хисобхона маълумотларига таянади, баҳолаш чоғида ноҳолисли ва суистемолликка йул қуймайди.

Корхоналарни еалютада баҳолаш

Корхоналарни баҳолаш учуч куйидаги усуллардан фойдаланилади:

Соф активларни баҳолаш

Баҳоланаётган мулкнинг кийматига ускуналар, бинолар, тугалланмаган иншоотлар, ер (ёки ундан фойдаланиш ҳукуки), бошқа корхоналарга сарфланган пул маблаглари, узок муддатли молия харажатлари киради.

Корхона балансида булган ускуналарни руйхатга олиш:

ускуналарни ишлаб чиқарувчи номи; ускуна олинган йил;

ускунанинг ишлаб чиқариш қувватини уз ичига олади.

Хар бир дона ускунанинг киймати баҳоланади. Ускуналар кийматларининг қуламини шундай ускунанинг жаҳон бозоридаги ҳозирги (бугунги) кийматини аниқлаб ёки унинг урнини босувчи киймат - ишлаб чиқариш қувватларини шундай янги ускунага алмаштириш учун харажатлар қандай бўлишига қараб белгилаш мумкин.

Сотувнинг ҳақиқий киймати:

- Жаҳон бозорида шундай эски ва шу унумдаги ускуна қандай баҳода сотилганлиги ёки сотилаётганлигини билиш мақсадида ишлатилган ускуналар савдоси билан шугулланувчи идора ёки компания билан маслаҳатлашувлар;
- Мазкур ускуна жаҳон нархлари бўйича сотилишининг гаҳминий кийматини белгилаш мақсадида (махаллий ёки халқаро) саноат экспертларини ёллаш йули билан ҳисоблаб чиқилиши мумкин.

Урнини босувчи киймат:

- Тегишли идоралар ва компаниялар билан шундай ишлаб чиқариш қувватига эга булган ухшаш янги ускуна қанча туришини билиш мақсадида янги ускуналарнинг киймати тугрисида маслаҳатлашувлар;

- Тенг ишлаб чиқариш қувватига эга янги ускуналарнинг жаҳон нархлари бўйича қийматини белгилаш мақсадида саноат экспертлари ёллаш йули билан белгиланиши мумкин.

Бионоларни баҳолаш:

- Жаҳон бозорида қурилиш материаллари қиймати;
- Жаҳон нархлари бўйича қурилиш - монтаж ишлари қийматининг ҳисоб - китобидан келиб чиқиб амалга оширилади. Бу ҳисоб - китобларни бажаришдан аввал бинонинг ҳар бир қавати режасини тузиб, ^мумий майдонини ҳисоблаб чиқариш керак бўлади.

Био қийматини, шунингдек:

- Бир хил майдони бўлган янги бинони қуриш мортизация ажратмалари чегириб ташланганда қанчага тушиши мумкинлигини аниқлаб олиш мақсадида (махаллий ёки хорижий) қурилиш компаниялари билан маслаҳатлашув йули билан баҳоланади.

Ерларнинг нархи уларнинг фойдаланиш хусусиятига боғлиқ ҳолда:

вилоятлар;

катта - кичик шаҳарлар;

шаҳарлар ичидаги марказий ва чекка туманлар;

бошқарув, илмий ва ижтимоий - маданий хизматлар курсатиш соҳаларининг ривожланиш даражаси турлича шаҳарлар;

тарихий қурилишлари бўлган шаҳарлар ва районлар;

алоҳида шарт - шароитлардан келиб чиқиб, бошқа омилар бўйича ҳисоблаб чиқилади ва табақалаштирилади.

Киёсий битишувлар усули

Киёсий қилиб олинadиган компанияларда илгари амалга оширилган битишувлар таҳлили корхона қийматининг тахминий қуламлари белгилаш учун қўшимча усул ҳисобланади. Битишувлар бутун бир мезонлар сирасига қўра "қийсланадиган" ҳисобланиши мумкин. Бу мезонлар тармок тури, корхона ҳажми, ишлатиш фойдалилиги ва географик урнини ўз ичига олади.

Корхона кийматини киёсланадиган битишувлар усули билан баҳолаш учун баҳоловчи (баҳоловчи ташкилот) томонидан ухшаш корхоналарни сотиш бўйича амалга ошириладиган битишувлар тугрисидаги ахборотлар жамланади. Амалда мутлако бир хил корхоналар булмаслиги туфайли киёслаш куйидаги чизма бўйича амалга оширилади. Баҳоловчи маълумот учта битишувга таалукли маълумотларни туплай колсин. Сотиб олинаётган объект кийматига таъсир курсатувчи фарклари бўлган омиллар аникланади. Хар бир омил куриб чикилаётганида сотилган корхонанинг тегишли параметрларига "мослаштирилади" ва тузатиш киритилади.

Киёсий битишув усули бўйича объектнинг киймати 8:

$$K_1 + K_2 + \dots + K_n$$

О

п

га тенг булиб, бунда $K_1, K_2, \dots, K_n$ - кийматга таъсир килувчи омилларнинг уртача арифметик йигиндисиди.

п - ҳисоб китоб учун қабул қилинаётган омиллар миқдори.

Киёслов натижалари жадвалга туширилади.

Бошқа омилларнинг таъсири ҳисоб - китоб ва экспертиза усуллари билан амалга оширилади.

Хосил қилинган баҳолар таҳлил қилинади. Агар улар орасидаги фарк оз бўлса, баҳоланаётган корхонанинг киймати баҳолаш чоғида фойдаланилаётган хар бир омилнинг уртача кийматлари йигиндисининг формуласи бўйича ҳисоблаб чиқилади.

Агар олинган якуний рақамлар бир - биридан кучли фарк қилса, у ҳолда медиана формуласидан фойдаланилади. Бунда баҳо сифатида корхонанинг баҳолаш омили олиндики, у узиш ёки камайиш бўйича тартибга солинган бир қатор рақамларнинг уртасида жойлашган бўлади.

Киёсий битишув усули харидорлар ва сотувчилар, мулкни баҳоловчилар, судлов идораларида энг катта ишонч қозонган, чунки у

корхона кийматига энг холис баҳо бериш микониятини яратади. У битишувларнинг хакикий ахборотига таянади.

Инвестиция лойихаларининг дисконтланган уз харажатларини узи коплаш усули.

Бу инвестрланган маблаглар узини узи коплашини тахлил килишининг самарали ва оммалашган усулидир. Унга бингоан хар бир йилги жорий пул тушумлари илгариги микдорга каратам токи йигинди инвестицияларнинг дастлабки хажмига тенглашгунича еки ошиб кетмагунича хисоблаб чикилади.

Даромадни дисконтлаш - сармоя арфланган вақтдан бошлаб даромад • р/шишидир.

Сотиб олинаётган корхонанинг келгуси пул тушумлари (фойда, фоизлар, амортизация) дисконтланган даромадини баҳолаш хисобхона баланси ва корхонанинг сунгги хисобот йилидаги хисоб - китоб маълумотлари сосида амалга оширилади.

Бу даромад ишлаб чиқаришдан тушумлар оқими ва келгуси, қоида тарикасида, тахминланаётган 5 - 10 йиллик вақт мобайнидаги молиявий операцияларда нақдинанинг қамайишидан жамланади.

Дисконтланган тушумлар хисоб - китоби корхонанинг келгуси даромадлари ва харажатларига таалукли дастлабки қупдан - қуп муфассал таклифларни тақозо этади.

Бундай тахминлар, шу жумладан, корхона маҳсулотларининг нархи, ишлаб чиқариш хажми, ишчи қучи ва энергия қувватларига сарф - харажатларни конкрет корхона фаолияти натижасида келгуси пул тушумлари сметаси асосида аниқлаб беради.

Дастлабки тахминлар корхонанинг мавжуд потенциал имкониятлари ва қузда тутилётган капитал ажратмалар, шу жумладан чет эл инвестициялари асосида қилиниши керак. Бу босқичда пул тушумларининг қутилаётган даражаси бугунги потенциал инвесторлар учун қийматни белгиловчи энг иухим омил хисобланади.

Бугунги олинган пул келгусида олинадигандан кадрликрок, чунки унинг кийматининг кадрсизланиши, шунингдек келгусида инвестор пул ололмаслиги хавфи кучли.

Мазкур корхонага инвестор канча микдорда энг куп молиявий ресурслар сарфлаши ва энг даражада канча даромад олишига имкон борлиги аниклаб чиқиш зарур. Турли мутахассислар маблагни бой бериш мумкинлигига ҳам, келажакни кузлаб бугунги неъматлардан воз кечишга ҳам турлича баҳо берадилар.

Ечим бир биридан фарк килувчи баҳоларнинг уртача даражасини чиқаришдадир. Шу баҳолар ёрдамида дисконтлашнинг ҳисоб — китоб коэффиценти (H_p) белгиланади. Бу уз харажатлариниузи коплашга белгиланган муддатлари мобайнида, даромаднинг сарфланган сармоя бирлигига (фоизларда) тугри келиши талаб килинадиган йиллик уртача микдор ёки даромаднинг ҳисоб — китоб ставкасидир.

Тахмин тугри тузилса, лойихани руёбга чиқаришнинг ҳисоб килинган муддати охирида ҳосил буладиган сармоя билан сарфланган маблаг уртасидаги нисбатни топиш мумкин.

Бу учун дисконтлаш формуласидан фойдаланилади:

$$K_p = K_o(1 + K_p)^2$$

Бунда, K_o — умумий сармояни, K_p - сармоя p йилдан Кейин кайтарилишини билдиради.

Реал банк ставкалари ҳисоб килинганидан юкори ёки паст булиши мумкин. Дисконтлаш формуласидан $\hat{p}$ ҳисоб килинадиган ставкани аниқлаймиз ва амалдаги даромад ставкаси M_f билан кийёслаймиз.

Агар $H_p < H_f$ булса, у холда бундай натижа фойдали эмас.

Дисконтлаш формуласи ёрдамчи билан сармоянинг копланиш муддатларини ва унинг сотувнинг дастлабки нархи сифатида баҳоланувчи K_o ҳажмини аниқлаш мумкин.

Пировард маълумотларни миллий пул бирлигидан хорижий валютага (АКШ доллари) айлантириб ҳисоблаш ХВФ томонидан валюта биржасида Ўзбекистон пул бирлигининг долларга нисбатан курси бўйича амалга оширилади.

Корхонанинг сезилмайдиган воситаларини баҳолаш (гудвилл)

Мазкур корхона мулкани баҳолашнинг пинхона имкониятларини аниқлашга қаратилиб, объектнинг узи - кесил баҳолаш қийматини аниқлаш пайтида ундан фойдаланиш мажбурийдир.

Корхонанинг сезилмайдиган воситаларини баҳолаш уз ичига: *»* инвесторлар учун корхона жойлашувининг фойдалилиги; <* меҳнат ресурсларининг мавжудлиги ва қийматини; <* ишлаб чиқарилаётган маҳсулотга (курсатилаётган хизматларга) талабни;

»** ривожланиш ва иқтисодий курсаткичларни узгартириш истикболларини ва бошқа омилларни баҳолашни олади.

Корхонанинг сезилмайдиган воситаларини баҳолаш ишлаб чиқариш урнашган жойга боғлиқ бўлади ва дастлабки қийматни тугрилаш коэффициентига қупайтириш йули билан ҳисоблаб чиқилади. У, шунингдек, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотга талабга боғлиқ бўлиб, бу ҳолатда корхонанинг илганмайдиган воситалари курсаткичини унинг жойлашган урни ҳисобга олиниб, тугрилаш коэффициентига қупайтириш йули билан амалга оширилади.

Айрим корхона раҳбарлари жамоа фикрини ҳисобга олмаслиги, айникса, ачинарли ҳолдир, улар узлари акция пакетининг эгалари бўлиб қолмокда ва эркин савдога чиқарилиши керак бўлган акциялар тугрисидаги қарорларни атайлаб яширмоқдалар.

